

**BO'LAJAK PEDAGOGLARNI O'QUV JARAYONI NATIJALARINI
BAHOLASHGA O'RGATISHNING METODIK-PSIXOLOGIK
YO'NALISHLARI**

*O'rinboyeva Mubinabonu Iqboljon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Kalit so'zlar: baholash, test metodi, og'zaki metodi, potfolyo metodi, yozma nazorat metodi, amaliy va grafik metod.

Bo'lajak pedagoglarni o'quv jarayoni natijalarini nazorat qilish va baholashga oid nazariy-amaliy bilimlar bilan qurollantirish, ularni baholashni zamonaviy metodikalaridan foydalanishga tayyorlash muhim kasbiy ahamiyatga ega. Nazorat o'quv jarayoni natijalarini ilmiy jihatdan tizimlashtirish hamda ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajalarini aniqlash imkonini beradi. U ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari hamda o'quv dasturida rejalashtirilgan natija bilan ta'limning real holati orasidagi mutanosiblikni baholashga ko'maklashadi. Nazoratning asosiy maqsadi ta'lim oluvchilar egallagan bilim, ko'nikmalarni aniqlash hamda istiqbolda ta'lim jarayoniga tuzatishlar kiritish maqsadida yo'l qo'yilgan kamchiliklar va bo'shliqlarni aniqlashtirishdan iborat. Nazoratni samarali tarzda amalga oshirish uchun bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilari mazkur xodisaning ilmiy metodik, metodologik jihatlarini yaxshi bilishlari kerak. Bo'lajak pedagoglarni o'quv jarayoni natijalarini baholashda nazorat tamoyillariga tayangan holda uning bosqichlari orasidagi aloqadorlikni yaxshi anglab etishlari lozim. Nazorat bosqichlarining har biri nazoratning turli metodlarini tanlash va qo'llashni taqozo etadi. Nazoratning asosiy maqsadi – o'quv jarayonining muvaffaqiyatli kechishini ta'minlash hamda teskari aloqani amalga oshirishdan iborat.

Zamonaviy didaktikada nazoratning yozma, og'zaki, amaliy, kuzatish, kabi metodlari qo'llaniladi. Bugungi kunda grafik hamda amaliy, laboratoriya, dasturlashtirilgan nazorat hamda portfolio metodlari ham qo'llanilmoqda.

1. Og'zaki nazorat metodi yozma nazoratga nisbatan ancha qadimiy hisoblanadi. Ushbu metod o'rta asrlardayoq munozara shaklida keng qo'llanilgan. Og'zaki nazoratning asosini monologik nutq yoki suhbat tashkil qiladi. Yakka tartibdagi so'rovlar ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishlari haqida to'liqroq ma'lumot olish imkonini beradi. E.I.Perovski [1] ning ta'biricha, mazkur metodning afzalligi ta'lim oluvchi bilan o'qituvchi orasidagi jonli muloqot, o'zaro aloqaning amalga oshishidadir. O'qituvchi o'z talabasini muntazam kuzatish natijasida uning o'zlashtirish darajasidagi bo'shliqlarni tezkorlik bilan aniqlash hamda bartaraf etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ta'lim oluvchi tomonidan berilgan har bir javob uning og'zaki nutqi mahsuli hisoblanadi. Shuning uchun ham ushbu metod ta'lim oluvchilarni rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Biroq og'zaki nazoratda uni qo'llash bilan bog'liq murakkab jihatlar ham mavjud. Birinchi navbatda, og'zaki nazorat va baholashda aniqlangan holatlarni tenglashtirish chora-tadbirlarini qo'llash bir qadar murakkab hisoblanadi. Bunday tadbirlardan biri ta'lim oluvchilar oldiga savollar qo'yishdan iborat bo'lib, uni barcha ta'lim oluvchilarga teng tarzda taqsimlash va taqdim etish imkonsizdir. Ikkinchi murakkab jihatlardan biri javoblarni aynan takrorlash hamda ularni chuqur tahlil qilish murakkab bo'lib, u ta'lim oluvchilarni real baholash imkonini cheklaydi. K.Ingenkamp [4] og'zaki nazorat omillarini aniqlab, uning uchta turini ajratib ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan. Og'zaki nazorat jarayonida baholashga: javoblarning ketma-ketligi, o'quv jarayonining natijasi, uning maromi haqidagi axborotlar ta'sir ko'rsatadi. Og'zaki nazoratning salbiy jihati uning asab tizimini qo'zg'atishi va unga ta'sir ko'rsatishida namoyon bo'ladi. Og'zaki nazoratlar ob'ektivlik, validlik hamda ishonchlilik talablariga to'liq javob bermaydi. Mutaxassislar og'zaki nazoratning afzal jihatlarini tahlil qilar ekanlar, uning salbiy ta'sirni pasaytirish imkoniyatiga egaligini ko'rsatib o'tganlar Ingenkamp K [64] ushbu metodni ko'nikmalarni nazorat qilish va baholash jarayonida qo'llash lozimligini ta'kidlab o'tgan. Ushbu metod yordamida asosan ta'lim oluvchilar nutqining ravonligi, aniqligi tekshiriladi va baholanadi. O'qituvchi ta'lim oluvchilarni og'zaki nazoratga tayyorlar ekan, ularning o'zlashtirish darajalarini

tavsiflovchi suhbatlarning borishini loyihalashi, dalillar, hukmlarni aniqlashi lozim. Shu tariqa og'zaki nazorat ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqlaydi. O'quv materialini bayon qilish mantiqi jarayonlarni tasvirlash yoki tushuntirish uchun bilimlardan foydalanish hamda voqealarni tasvirlash jarayonlarini ifodalaydi. Bu esa ta'lim oluvchilarga o'z nuqtai nazarini himoya qilish, noaniq holatlarni tekshirib ko'rish imkonini beradi.

2. Yozma nazorat metodi yozma topshiriqlarni bajarishni nazarda tutadi. Yozma topshiriqlar sirasiga mashqlar, yozma nazorat ishlari, insholar, muloqot matnlari kabilar kiradi. E.I.Perovski o'z ishlarida mazkur nazorat turining bosqichlarini ko'rsatib o'tgan. Barcha yozma ishlar muayyan hujjatlarda o'z ifodasini topadi. Bu esa nazorat va baholashning batafsil amalga oshirilishini ta'minlaydi. O'z navbatida o'qituvchi natijalarni tekshirish va baholash uchun o'zida mas'uliyat his qiladi. Yozma nazoratni amalga oshirish bahoning haqqoniyligini va talabalar bajargan ishlarga nisbatan ob'ektiv munosabatda bo'lishni ta'minlaydi [86]. Savol-javob ko'rinishidagi yozma nazoratning 2 ta asosiy kamchiligi mavjud: ta'lim jarayoni sub'ektlari orasida bevosita jonli muloqotning mavjud emasligi, bu o'z navbatida o'qituvchining talabalar tomonidan bajarilayotgan ishni bevosita nazorat qilish imkoniyatini pasaytiradi; fikrni yozma tarzda ifodalash jarayonidagi qiyinchiliklar ta'lim oluvchilarning o'quv yutuqlarini o'zaro qiyoslashni qiyinlashtiradi. Nazoratning mazkur metodi ta'lim oluvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini ayni bir vaqtning o'zida nazorat qilish va baholash imkonini beradi. Biroq yozma topshiriqlarni tekshirish pedagogdan ko'p vaqt talab qiladi. Yozma nazoratning afzal jihatlaridan biri shundaki, o'qituvchi barcha ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajalari, kuchli va kuchsiz jihatlari haqida bir yo'la axborot to'plash imkoniyatiga ega bo'ladi. Tekshirilayotgan mavzu doirasida ta'lim oluvchilarning aqliy rivojlanish darajasi, ko'nikmalari, yozma savodxonligi, hisoblash ko'nikmalari, mustaqil ishlash darajasi haqida ma'lumotga ega bo'ladi.

3. Amaliy hamda grafik nazorat metodi yordamida baholash o'ziga xos jihatlarga ega. Ushbu metodni barcha o'quv fanlari doirasida qo'llash imkonsiz.

Mazkur metod ogʻzaki va yozma nazorat metodlari bilan uygʻunlashtirilgan holda qoʻllaniladi. Bu metod yordamida taʼlim oluvchilarning egallagan kasbiy koʻnikmalari nazorat qilinadi va baholanadi.

4. Dasturlashtirilgan nazorat metodi dasturlashtirilgan oʻqitish bilan bevosita bogʻliq holda qoʻllaniladi. Aniq nazorat ushbu metodning tarkibiy qismi sifatida namoyon boʻladi. Oʻqituvchilar dasturlashtirilgan nazoratdan darsning turli bosqichlari, xususan boshi va yakunida foydalanadilar. Ushbu metod qoʻllanganda, koʻproq teskari aloqani aniqlash imkoniyati vujudga keladi. Bugungi kunda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatining kengayganligi tufayli talabalar bilimni kompʻyuter yordamida nazorat qilish va baholash rivojlanmoqda. Dasturlashtirilgan nazorat taʼlim oluvchilar va oʻqituvchilarning vaqtini tejaydi. Mazkur metod yordamida bilimlarni aniqlash va baholashning yagona talablari oʻrnatiladi. Nazorat natijalariga osongina statistik ishlov beriladi. Bilimlarni baholashda oʻqituvchining subʻektiv qarashlari bartaraf etiladi. Shu bilan bir qatorda oʻz-oʻzini baholash jarayonini muvaffaqiyatli kechishini taʼminlaydi. Oʻz-oʻzini nazoratni kompyutersiz ham amalga oshirish mumkin. Bunday vaziyatda taʼlim oluvchilarni mustaqillikka oʻrgatish muhim ahamiyatga ega. Ular oʻzlari yoʻl qoʻygan xatoni topishlari, topshiriqlarni notoʻgʻri echganliklarini aniqlay olishlari va kamchiliklarni bartaraf etish yoʻllarini izlashlari lozim.

Taʼlim oluvchilar bilimni baholashdagi subʻektivlik oʻquv jarayoni natijalarini aniq baholash, yoʻl qoʻyilgan kamchiliklarni bartaraf etish imkonini bermaydi. Buning natijasida oʻquv jarayoni haqida obʻektiv maʼlumotlarni toʻplash imkoniyati cheklanadi. Subʻektiv baholash didaktik jarayonni murakkablashtirib, aniq oʻquv harakatlarini amalga oshirishga toʻsqinlik qiladi.

Taʼlim oluvchilar bilimni nazorat qilish asosida oʻquv jarayoni natijalarini baholashning yuqorida koʻrsatib oʻtilgan metodlari muayyan kamchiliklarga ham ega. Ular: 1) pedagogik ishlarning xususiyatlari va oʻziga xos jihatlari bilan bogʻliq qiyinchiliklar:

- turli pedagoglarning talablari orasidagi nomuvofiqlik, yaʼni taʼlim oluvchining ayni bir javobiga turlicha yondashgan holda munosabatda boʻlish;

- pedagogning kasbiy malakasi orasidagi farqlar;
- pedagogning tashkiliy ishlar bilan haddan tashqari bandligi, qisqa vaqt orasida ko'p miqdordagi axborotlarni to'plash majburiyatining yuklanganligi;
- pedagoglarda ta'lim oluvchilarni baholash layoqatining etarlicha shakllanmaganligi;
- bilimlarni tekshirishning an'anaviy shakllarini qo'llashdagi qiyinchiliklar;
- qo'yiladigan har bir ijobiy baho uchun talab qilingan ko'rsatkichlarning etarlicha asoslanmaganligi va belgilab qo'yilmaganligi;
- shpargalkalardan foydalanish, o'zaro yordamning ob'ektiv baholash imkoniyatlarini cheklashi hamda o'qituvchining o'z pedagogik faoliyatini aniq amalga oshirishiga to'sqinlik qilishi;
- baholashning aniq mezonlari va o'quv jarayoni natijalarini qiyoslash yo'nalishlarining ishlab chiqilmaganligi. Imtihonlarda 3-4 ta savol yordamida ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi va o'quv jarayoni natijalarini to'laqonli baholash imkonsiz ekanligi mavjud tajribalar va nazariy yondashuvlarning tahlilidan yaqqol namoyon bo'ldi.

Bugungi kunda o'quv jarayoni natijalarini ob'ektiv baholash bilan bog'liq kamchiliklar asosan test topshiriqlari va portfolio metodlari yordamida bartaraf etilmoqda.

5. Portfolio metodi (ital. Portfolio – hujjatlar jamlangan papka) ta'lim oluvchilarning yutuqlari, o'quv jarayoni natijalarini to'plangan hujjatlar jamlanmasi yordamida aniqlash imkonini beradigan metoddir. Mazkur metod o'quv jarayonida ta'lim oluvchilarning yutuqlari, ijodiy, kommunikativ layoqatlarini aniqlash, qayd etish, baholash imkonini beradi, hamda ta'lim oluvchilarning turli sohadagi yutuqlari, mayllari, izlanuvchanliklarini aniqlash va rivojlantirish yo'nalishlarini bashorat qilishga ko'maklashadi.

Mazkur metodni amalga oshirishning yangi shakllari ham mavjud: yutuqlar portfoliosi, taqrizlar portfoliosi, yozma ishlar portfoliosi kabilar. Ushbu portfoliolar ta'lim oluvchilarga o'z-o'zini baholash imkonini beradi. Ta'lim oluvchilar o'zlari erishgan rivojlanish bosqichida turib, istiqbollarni belgilovchi

strategiyalarni ishlab chiqadilar. To'plangan hujjatlar jamlanmasi ta'lim maqsadi bilan bevosita bog'liq. Ular ta'lim oluvchilarning o'quv jarayonida o'zlashtirgan bilimlarini ifodalaydi. Portfolio metodini tadbiiq etish ta'lim oluvchilar va pedagoglardan ko'p mehnatni talab qiladi. O'qituvchilar ushbu metod asosida o'quv jarayoni natijalarini baholash uchun ijtimoiy faol bo'lishlari, ta'lim oluvchilarning o'quv yutuqlarini aniqlash maqsadida ko'p vaqt sarflashlari lozim. Shu bilan bir qatorda mazkur metod o'quv jarayoni natijalarini baholashning an'anaviy tizimini istiqbolda rivojlantirishga asos bo'ladi. Bu kabi metodlarni qo'llagan holda o'quv jarayonini baholashning yangi, mujassamlashtirilgan nazorat metodini vujudga keltirishga ko'maklashadi.

O'qituvchi ta'lim oluvchining o'quv yutug'lari uchun qo'ygan bahosiga mas'uldir. Bu o'rinda "belgilash" va "baholash" tushunchalarini farqlash lozim.

Baho – rejalashtirilgan maqsadga asoslangan aniq natijalarga aloqador hodisa hisoblanadi.

Belgi esa mazkur jarayonning natijasi, uning shartli shakliy ifodasi bo'lib, sub'ektiv fikr, taassurotlarni aks ettiradi. Belgining vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

- o'quv materialini qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish;
- yo'naltiruvchilik harakatlarini amalga oshirish;
- ta'lim oluvchilarning muayyan o'quv fani bo'yicha shug'ullanish yoki shug'ullanmasligini aniqlash;
- ta'lim oluvchilarning o'rganilgan o'quv materiali uchun qanday baho olganligini ifodalash;
- jazolash uchun asos bo'ladigan holatlarni aniqlash;
- boshqaruvchilik harakatlarini amalga oshirishga imkoniyat yaratish, ya'ni ta'lim oluvchilarni ijobiy baho olishga undash kabilar.

Belgining asosiy vazifasi nazorat qilish va yo'naltirishdan iborat. Nazorat qilish vazifasi ta'limning barcha bosqichlarida amalga oshiriladi. Buning uchun ta'lim oluvchilar yakuniy, darsda bajariladigan nazorat ishlari, mustaqil ishlarning turli shakllari va turlaridan foydalanish, tekshirish xarakteridagi uy vazifalarini

topshirish usullaridan foydalanadilar. Agar belgilashning mazkur funksiyasi tizimli, ob'ektiv, barcha pedagogik omillarni batafsil hisobga olgan holda amalga oshirilmasa o'z mohiyatini yo'qotadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, muayyan holatni belgilashda o'qituvchi uning mazmunini kengaytirishga harakat qiladi. U faqatgina o'quv jarayoni natijalarini tashxislash va baholashdan iborat bo'lib qolmasdan, uning axborotlar bilan ta'minlanganligi, ya'ni ta'lim oluvchilar nimani bilishlari yoki bilmasliklarini aniqlashga ham e'tibor qaratiladi. Shu bilan bir qatorda o'qituvchi ushbu jarayonda ta'lim oluvchilarning o'quv mehnati, ta'lim muassasasidagi kundalik faoliyatiga bo'lgan munosabatini ham hisobga olishi kerak. Bunda ta'lim oluvchilarning erkin muloqot yurita olish, hissiy barqarorlik, dominantlikka intilish, ijtimoiy etuklik, ijtimoiy dadillik, ishonuvchanlik, mustaqillik, ishonch, o'zo'zini nazorat qilish, qo'zg'aluvchanlik, asabiy taranglik, muvaffaqiyatga intilish, yutuqqa ehtiyoj, o'z-o'zini baholash kabi shaxsiy sifatlari, shuningdek odamlar ishonchini qozona bilish, safarbarlik, o'z mehnatini hisobga olish va iqtisodiy baholash, kuzatuvchanlik, qat'iyatlilik, chidam, uddaburonlik, turli xil va murakkab texnikadan foydalana bilish, uzoqni ko'ra bilishlik, tartiblilik, jamoada qulay sharoitni yaratish, tashabbuskorlik, amaliy mehnatga moyillik kabi kasbiy sifatlar nazarda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Markova A. K. Psixologiya truda uchitelya: kn. dlya uchitelya. — m.: prosveshenie, 1993. — 192 s.
2. Mahmudov M.H. Ta'limni didaktik loyihalashning nazariy asoslari. Ped. fan. doktorlik. diss. . . –T., 2003. –342 b.
3. Maxkamov S. “O'quv ustaxonalarida o'tqaziladigan amaliy mashg'ulotlar”T 1992.y
4. Ma'murov B.B. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarida akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish tizimi. Ped.fan.dokt.diss. – Toshkent: 2018, 263 b.

5. Ma'murov B.B. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarida akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish. Monografiya.– T.: Fan, 2017. –144 b.
6. Mityaeva A.M. Kompetentnostnaya model' mnogourovnevnogo vysshego obrazovaniya (na materiale formirovaniya uchebno-issledovatel'skoy kompetentnosti bakalavrov i magistrrov). Avtoreferat diss. dok. ped. nauk. - Volgograd, 2007. -43 s.
7. Muslimov N.A. Texnologik ta'lim o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dokt. ... diss. – T.: 2007. – 357 b.
8. Nardyujev V.I., Nardyujev, I.V. Modeli i algoritmy informatsionno vychislitel'noy sistema komp'yuternogo testirovaniya–M., 2000.